



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **“KUNTUG‘MISH” DOSTONIDA QO‘LLANILGAN LINGVOMADANIY BIRLIKLAR TASNIFI REALIYA MISOLIDA**

**Jumayeva Dilafro‘z Orifjon qizi**  
Termiz davlat universiteti, magistrant

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada “Kuntug‘mish” dostonidagi realiyalar, ya’ni milliy urf-odat, kiyim, taom, cholg‘u asboblari hamda etnografizmi aks ettirgan birliklar tahlilga tortilgan, ularning O‘zbek tilining izohli lug‘atida keltirilgan ma’nolari, shuningdek lingvomadaniy semalar sifatidagi ahamiyati misollar, asarlardan namunalar keltirilib ochib berilgan. Shuningdek, ularning madaniy, ijtimoiy semalari yoritilib, ma’lum bir guruhlariga bo‘linib tavsif qilingan.

**Kalit so‘zlar:** lingvomadaniy birlik, realiya, madaniy kod, etnografizm, milliy taom, milliy kiyim, urf-odat, marosim.

## **КЛАССИФИКАЦИЯ ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫХ ЕДИНИЦ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В ПОСЛАНИИ “КУНТУГМИШ” НА ПРИМЕРЕ РЕАЛЬНОСТИ**

**Жумаева Дилафруз Орифжон кизи**  
Термезский государственный университет, магистрант

### **Аннотация**

В данной статье анализируются реалии эпического произведения “Кунтугмиш”, то есть единицы, отражающие национальные обычаи, одежду, еду, музыкальные инструменты и этнографию, а также их значение в Толковый словарь узбекского языка, и их значение как лингвокультурной семантики, с использованием примеров и отрывков из произведений. Одновременно выделяется и описывается их культурная и социальная семантика в отдельных группах.

**Ключевые слова:** лингвокультурное единство, реальность, культурный код, этнография, национальная еда, национальная одежда, традиция, ритуал.

## **CLASSIFICATION OF LINGUOCULTURAL UNITS USED IN THE EPISTLE “KUNTUGMISH” ON THE EXAMPLE OF REALITY**

**Jumayeva Dilafro‘z Orifjon qizi**  
Termez State University, Master’s Student

### **Abstract**

This article analyzes the realities of the epic “Kuntug‘mish”, that is, the units reflecting national customs, clothing, food, musical instruments, and ethnography, and their meanings in the Explanatory dictionary of the Uzbek language, as well as their significance as linguocultural semantics, is explained by citing examples and examples from works. At the same time, their cultural and social semantics are highlighted and described in certain groups.

**Keywords:** linguocultural unity, reality, cultural code, ethnography, national food, national clothing, tradition, ritual.

Lingvomadaniy birliklar lisoniy belgining ma’nosi va madaniy mazmun birikuvidan tarkib topadigan, semantik va madaniy axboroti yaqqol namoyon bo‘luvchi til birliklaridir. Jumladan, frazeologizmlar, etalonlar, ramzlar, metaforalar, turg‘un o‘xshatishlar, nutqiy etiket birliklari, urf-odat va marosimlarga doir so‘zlar, topishmoqlar, milliy realiyalar, arxetiplar,

mifologemalar, lakunalar, pretsedent birliklar va boshqa shu kabi vositalar lingvomadaniy birliklar sirasiga kiradi [3; 26-b.]. Bundan tashqari, lingvomadaniyatshunoslikning qiziqish doirasiga ramziy ma'noga ega bo'lgan va madaniy ma'lumotlarni aks ettiruvchi har qanday til birliklari, xususan, frazeologik birliklar, metaforalar, maqollar, o'xshatishlar va shu kabilar ham kiradi [2; 2-b.].

Shu bois lingvokulturologiya haqida so'z borganda, u zamonaviy tilshunoslikda maxsus fan sohasi sifatida bir qator sarmahsul tushunchalarni yuzaga keltiradi. Bular jumlasiga lingvokulturema, madaniyat tili, madaniy matn, madaniyat konsepti, submadaniyat, lingvomadaniy paradigma, madaniy universaliya, madaniy salohiyat, madaniy meros, madaniy an'analar, madaniy jarayon, madaniy ko'rsatmalar va boshqalar kiradi. Bundan tashqari, lingvokulturologiyaning muhim tushunchaviy apparatiga mentalitet, mentallik, taomil, rasm-rusumlar, madaniyat doirasi, madaniyat turi, tamaddun, majusiylik kabi tushunchalar ham mansubdir. Yuqoridagi tushunchalar orasida madaniy sema, madaniy fon, madaniy konsept va madaniy konnotatsiya eng muhimlari hisoblanadi, chunki aynan ular madaniy ma'lumotni til birliklari orqali namoyon etadi. Jumladan, tadqiqot obyektimiz hisoblangan "Kuntug'mish" dostonida ham bir qator lingvomadaniy birliklar, lingvomadaniy kodlar va lingvokulturologik semalarni uchratish mumkin.

Adabiy til umumxalq tilining yozuvchi, shoir va so'z ustalari tomonidan ishlangan, sayqal berilgan, grammatik qonun-qoidalariga rioya qilinadigan, muayyan me'yorga solingan, umummajburiy va qonuniy to'g'ri qo'llanadigan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shaklidir. Adabiy tilga e'tibor qaratilganda, ba'zan shevalar e'tibordan chetda qoladi. Aslida esa jamiyatda adabiy tilning ham, shevaning ham o'rni bo'lishi lozim. Sheva o'zida tarixiy xotira, madaniy ko'nikmalar va lug'at boyligini saqlaydi. Shu jumladan, adabiy tilni boyitib turuvchi milliy xos birliklar ham muhim ahamiyatga ega. Ularga misol sifatida realiyalarni keltirish mumkin.

Realiyalarning muayyan koloritni aks ettirish xususiyatlari to'g'risida XX asrning 50-yillarida tilshunoslar bahs yurita boshladilar. Bu borada bir to'xtamga kelish ancha murakkab jarayonni tashkil etdi. Rus olimasi L.N. Sobolevaning fikriga ko'ra, realiyalar — maxsus xususiyatga ega bo'lgan, bir tilda mavjud bo'lib, boshqa mamlakatlardagi tillar muhitida to'liq ekvivalenti bo'lmagan milliy so'z va so'z birikmalaridir [4]. Taniqli tarjimashunos olim V.M. Rossels ta'kidlashicha, realiyalar — tarjima qilinayotgan tilga kirib kelgan va asliyat tilida muayyan milliy, mahalliy narsa, predmet yoki tushunchalarning nomini ifodalovchi so'zlardir [5]. Masalan, milliy taomlar, kiyim-kechaklar, milliy cholg'u asboblari, ro'zg'or anjomlari, nomlar, taxalluslar, laqablar, shahar va qishloqqa xos xususiyatlar, me'morchilik, geografik nomlar, tabiat manzaralari, hayvon va o'simlik nomlari, daraja, unvon, tabaqa va boshqa etnografik belgilarni bildiruvchi so'z va iboralar shular jumlasidandir.

Realiyalar tasnifi bo'yicha dastlab nisbatan aniq variantni S. Vlixov va S. Florin taklif qilgan. Ular realiyalarni dastlab ashyoviy jihatdan bo'lib o'rganadilar. Etnografik realiyalar turkumiga maishiy hayot, mehnat, madaniyat va san'at, urf-odatlar, etnik obyektlar, o'lchov va pul birliklari, shuningdek ijtimoiy-siyosiy realiyalar kiradi. Tadqiqotimizda etnografik realiyalar turkumiga mansub bo'lgan maishiy hayotda uchraydigan kiyim-kechaklardan ayrimlarini doston matni asosida tahlil qilamiz.

“Qoshida donolar so'zdan adashgan,  
Dushmani sher bo'lsa, qaytmaydi savashgan,  
Mingan oti, kiygan to'ni yarashgan,  
Jamoliga qaragan ko'z qamashgan,  
Nur yuziga oy-u oftob talashgan” (32-bet).

**To'n** — oldi ochiq, paxtali yoki paxtasiz uzun ustki milliy kiyim; chopon [1; 504-b.]. To'n leksemasining ma'nodosh semasi sifatida **chopon** ham folklor matnlarida keng uchraydi: “... mening ustimdagi harna qolgan yuqa choponni olaman deydigansandi” (108-bet). **Chopon** —

kiyim ustidan kiyiladigan, ichiga paxta solib qavilgan uzun milliy kiyim; to‘n [1; 813-b.]. Ushbu lingvomadaniy realiyalar to‘y-marosimlarda, aza tadbirlarida yoki kundalik turmushda erkak va ayollar tomonidan kiyiladigan, o‘zbek mentalitetida keng tarqalgan milliy kiyimlardan hisoblanadi. Chopon nafaqat kiyim, balki maqom, hurmat, an‘ana, mehmondo‘stlik va milliy mentalitet belgisi sifatida ham namoyon bo‘ladi. XIX asr Turkiston muhitini tasvirlashda beklar, savdogarlar va boylar chopon yoki to‘n kiygan holda ifodalanadi. Demak, chopon ijtimoiy tabaqa va obro‘ ramzi sifatida ham talqin qilinadi. A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” asarlarida, shuningdek, A.Qahhor hikoyalarida chopon qahramonning ijtimoiy holatini ko‘rsatuvchi detal vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, to‘y marosimlarida “chopon kiydirish” odati ham milliy mentalitetni ifodalovchi muhim belgilardan biridir.

“Belima boylangan olmos qiyog‘im,  
G‘am bilan sarg‘aygan gulday siyog‘im,  
O‘lim uchun g‘am yemayman bo‘yingdan,  
Qolmadi olamda biror tuyog‘im” (48-bet).

**Qiyiq** — odatda belga bog‘lash uchun atrofiga gul tikilgan to‘rtburchak mato; belbog‘, qiyiqcha [1; 168-b.]. Dostonda keltirilgan **qiyog‘** shakli aynan **qiyiq**, ya‘ni belbog‘ so‘zining shevada yoki folklordagi variantidir. Ushbu lingvomadaniy birlik bir qator badiiy asarlarda ham uchraydi. A.Qahhorning “Qo‘shchinor chiroqlari” asarida, O‘. Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarida qiyiq tikish holatlari o‘zbek qizlariga xos mentalitetni ifodalovchi detallar sifatida keladi.

“Zarrin ro‘molimni boshga o‘radim,  
Tush ko‘rganda yaxshilikka jo‘radim,  
Ozoringdan tanda jonim aylansin,  
Yoring bo‘lib ne kuningga yaradim” (50-bet).

**Ro‘mol** — ayollar boshiga o‘raydigan, odatda to‘rtburchak shakldagi mato; umuman shunday mato yoki parcha [1; 474-b.]. Biroq uning semantik maydoni faqat predmetlik ma‘nosi bilan cheklanmaydi. Ro‘mol o‘zbek xalqining milliy kiyim madaniyatida alohida o‘rin tutadi. Madaniy kod sifatida ro‘mol iffat va hayo belgisi, turmushga chiqqanlik nishonasi, hurmat va sadoqat ramzi, motam marosimlarida esa aza ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, ushbu leksema milliy mentalitet va qadriyatlarni ifodalovchi ramziy semaga ega. U badiiy asarlarda ham keng qo‘llanadi: M. Ismoilovning “Farg‘ona tong otguncha”, A.Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asarlarida ro‘mol qahramonning ruhiy va ijtimoiy holatini ifodalovchi detal sifatida beriladi.

“... bir kampir bozorga kech kelib, yarim nimcha ipini qo‘liga olib...” (19-bet).

**Nimcha** — ko‘ylak ustidan yoki kamzul ichidan kiyiladigan yengsiz, yoqasiz, kalta va ixcham kiyim, asosan ayollar kiyimi [1; 376-b.]. Nimcha o‘zbek milliy kiyimlari qatoriga kirib, hududiy bezak va naqshlar orqali etnik xususiyatni namoyon etadi, ba‘zan ijtimoiy maqom va yosh farqini ifodalashi mumkin, ayrim hollarda esa marosimiy kiyim sifatida qo‘llanadi. Shu bois u oddiy kiyim nomi emas, balki madaniy kod sanaladi. Lingvokulturologik jihatdan, V.V. Maslova ta‘rifiga ko‘ra, milliy-madaniy semantik komponentga ega bo‘lgan til birliklari lingvomadaniy birlik hisoblanadi. “Nimcha” leksemasi real predmetni bildirishi bilan birga milliy an‘ana, mentalitet va tarixiy taraqqiyotni ham ifodalaydi.

### 1-jadval

#### Maishiy hayotda uchraydigan realiyalar

T/r	Dostondan keltirilgan lingvomadaniy kodlar	O‘zbek tilining izohli lug‘atidagi ma‘nosi	Lingvomadaniy jihatdan izohi
1	“Eshak haydagan bovalar, Dardingga bormi davolar, Kalava sotgan momalar, Xolbekadan ko‘rgan	<b>Kalava</b> — charxga bir necha marta bir tekis qilib o‘ralgan, keyin chiqarib taxlangan bir o‘ram ip, ipak [1; 717-	Ushbu birlik til va madaniyat bog‘liqligini ko‘rsatadi. U faqat ip emas, balki o‘zbek lingvomadaniyatida chigallashgan masala va murakkab hayotiy

	bormi?” (18-bet)	b.]	holatlarning belgisi sifatida ham namoyon bo‘ladi.
2	“Podsho nog‘orani urdi, qizlar ham pastga qarab yurdi...” (33-bet)	<b>Nog‘ora</b> — tuvaksimon sopolga teri qoplab yasalgan va ikkita cho‘p bilan urib chalinadigan bir juft musiqa asbobi [1; 414-b.]	Nog‘ora o‘zbek xalqi madaniyatida nafaqat zarbli cholg‘u asbobi, balki to‘y-marosimlar, bayramlar va jamoaviy yig‘inlarning muhim atributi hisoblanadi.
3	“... charxini oldiga olib, paxta ipini yigirdi-da, o‘tirdi” (42-bet)	<b>Charx</b> — ip yigiradigan dukli qo‘l asbobi [1; 742-b.]	Ushbu birlik moddiy predmet bo‘lishi bilan birga chuqur falsafiy va ijtimoiy ma‘no kasb etadi. U millatning hayot, vaqt va jamiyat haqidagi tasavvurlarini aks ettiradi.
4	“... chirog‘ini yoqib, eshikni ochib...” (122-bet)	<b>Chiroq</b> — xonani yoritish uchun xizmat qiladigan uy-ro‘zg‘or asbobi; ko‘chma ma‘noda farzand yoki yaqin odam [1; 795-b.]	Chiroq so‘zi lingvomadaniy jihatdan nur va ma‘rifat, hayot va baraka, muqaddaslik hamda poklik ramzi sifatida xalq og‘zaki ijodi va badiiy asarlarda keng uchraydi.

2-jadval

**Milliy taomlar**

T/r	Dostondan keltirilgan lingvomadaniy kodlar	O‘zbek tilining izohli lug‘atidagi ma‘nosi	Lingvomadaniy jihatdan izohi
1	“O‘nta cho‘pon itiga osh pishirib yotib edi...” (99-bet)	<b>Osh</b> — pishirilgan issiq ovqat; umuman har qanday ovqat, taom; aynan palov; ba‘zi marosim nomlari tarkibida ham qo‘llanadi [1; 597-b.]	Osh o‘zbek lingvomadaniyatida mehmondo‘stlik, baraka, to‘kinlik va marosimiylik ramzi bo‘lib, to‘y va boshqa tadbirlarda keng iste‘mol qilinadigan milliy taomdir.
2	“Mening chulon oshimga kelgan amaldorlar...” (115-bet)	<b>Osh</b> — yuqoridagi ma‘nolarda [1; 597-b.]	Ushbu birlik chulon oshi, nikoh oshi, to‘y oshi kabi marosimiy ko‘rinishlarda namoyon bo‘lib, o‘z o‘rnida madaniy sema sifatida muhimdir.
3	“... bir-ikkita cho‘zma, bir-ikkita chalpak qilib berdi...” (119-bet)	<b>Cho‘zma</b> — yupqa yoyilgan xamirga piyoz yoki qiyma solib, yog‘da pishiriladigan tansiq ovqat [1; 858-b.]; <b>Chalpak</b> — xamirni yupqa yoyib, yog‘da pishiriladigan yegulik [1; 715-b.]	Chalpak va cho‘zma milliy taomlar sifatida ehson, savob, baraka, poklik va orzu-niyat bilan bog‘liq madaniy ma‘nolarni ifodalaydi.

Lingvomadaniyatshunoslik til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganadi. Ushbu jihatdan moddiy mentalitet elementlari — kiyim-kechak, milliy buyumlar, marosim atributlari va taqinchoqlar milliy tafakkurni ifodalovchi lingvokulturologik birliklar sifatida talqin qilinadi.

Demak, realiyalar o‘zbek xalqining o‘tmishi, buguni va ertasini ifodalovchi ijtimoiy-falsafiy, etnografik, etnik va madaniy semalarni o‘zida mujassam etgan milliy leksemalar hisoblanadi. Ushbu lingvomadaniy tushunchalar orqali biz muayyan millatning tarixi, madaniyati,

yashash tarzi va o‘ziga xos xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo‘lamiz. Realialar asar yoki xalq og‘zaki ijodi namunalarining milliy ruhini saqlash bilan birga, madaniyatlararo aloqani boyitishda va tilning konnotativ, ya’ni madaniy yuklamasini oshirishda ham katta ahamiyatga ega.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Madaliyev A.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2020.
2. Muhammadjonova M.Turli tizimdagi tillarda lingvistik birliklar tadqiqi // Farg‘ona davlat universiteti ilmiy maqolasi.
3. Xudoyberganova D.Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – T.: Turon zamin ziyo, 2015.
4. Соболев Л. Н.Пособие по переводу с русского языка на французский. – М., 1952.
5. Россельс В. М.Реалия // Краткая литературная энциклопедия. – М., 1971.
6. Ziyonet: ta’lim portali. – URL: <https://ziyonet.uz>
7. Uzbek school corpora. – URL: <https://uzschoolcorpora.uz>